

Yusufning hikmati



14:30 / 24.04.2019 1868

10

Yusuf o'ziga o'zi shunday dedi: "Albatta ehtiyoj, ikki kishini menga chorladi. Albatta hojat egasi yumshoq bo'ladi va quloq soladi. Albatta hojat egasi itoat etadi va eshitadi. Agar ularga biror narsa aytsam, ular ham, qamoq ahli ham eshitadi. Lekin Yusuf shoshmadi, xovliqmadi ham. Ularga: "Men sizlarga tushlaringiz ta'birini taomlaringiz kelishidan oldin aytib beraman", dedi, ikkovlari o'tirdilar va hotirjam bo'ldilar. So'ngra Yusuf ikkovlariga: "Men tushlar ta'birini biluvchiman. **"Bu ish menga Robbim o'rgatgan narsalardandir"**, dedi. Ikkovlari xursand bo'lib, tinchlandilar. Mana shu yerda Yusuf fursat topdi va da'vatni boshladi.